


“Tarix va arxeologiya fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Hujjatlar tilga kirganda: qatag‘on qurbonlari” hujjatlar to‘plami maqsadli ilmiy loyihasining o‘zbek qarashini ishlab chiqish va uning asosida loyiha tayyorlash. 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: – XX asr qatag‘on qurbonlari tarixini o‘rganishda xorijiy va begona mafkuraviy qarashlardan xoli bo‘lgan, milliy manfaatlar va tarixiy adolat tamoyillariga asoslangan yangi “O‘zbek qarashi” ilmiy-nazariy modeli va metodologiyasi ishlab chiqiladi; – qatag‘on siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari va oqibatlarini ochib berish uchun: arxiv hujjatlari, tergov ishlari, buyruqlar, maktublar va shaxsiy kundaliklar tahlili asosida turkum mavzuviy hujjatlar to‘plami hamda ilmiy-manbashunoslik konsepsiyasi ishlab chiqiladi; – GIS va raqamli xaritalash asosida: qatag‘on qurbonlarining surgun qilingan geografik hududlari, qatlgothlar, qamoq lagerlari joylashuvi va "Xotira xaritasi" (interaktiv xarita) hamda qurbonlarning yagona elektron reyestri tuziladi; – O‘zbekiston arxiv ishi, muzeyshunoslik hamda ta’lim tizimi (darsliklar, o‘quv dasturlari)ga integratsiya qilish uchun: arxiv hujjatlarini ochish, tizimlashtirish va ommaviy tadqiqotlarga jalb etish bo‘yicha normativ-uslubiy tavsiyalar hamda standartlar loyihalari ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Fanlar akademiyasi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Fanlar akademiyasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Fanlar akademiyasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi

